

O'ZBEK OPERA SAN'ATINING RIVOJLANISHI VA TARIXI

Ibrohimov Azizbek Ismonjon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek opera san'atining mustaqillik davrlariga kelib rivojlanishi. O'zbek Opera san'atidagi mashhur asarlar nomlari hamda tarixlari yozma manbaalar asosida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *opera, balet, sahna, o'zbek,*

O'zbek opera san'ati 1930-illar oxirida o'zbek var us kompazitorlarining hamkorlik ijodiyotida yirik sahnaviy janrda asar yaratiladi. Ya'ni kompazitorlar Muxtor Ashrafiy va Vasilenkolar hamkorligida birinchi marotaba o'zbek operasi "Bo'ron" operasi yaratildi. Urushdan keying davrdan opera teatrining repertuari ancha boyidi. Bu birdaniga bo'lmagan, albatta. Davr boshida repertuarda qayta taxrir qilingan eski asarlar(vasilenko va Muxtor Ashrafiyning "Buyuk kanal", Uspeniskiy va G.Mushelning "Farxod va Shirin", T.Jalilov va B.Brovtsinning Tohir va Zuhra) ustunlik qilgan. Biroq 1958-yildan boshlab deyarli har yili teatr o'z repertuariga yangi o'zbek operalarni kiritdi. Bu mavzuda yozilgan asarlar mavzu va badiiy saviyasi turlicha bo'lgan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilindi. Ba'zilar sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rin egalladi. Biz shulardan ahamiyatliroqlarini ajratib, avvalambor zamonaviy, muhim mavzuga bag'ishlangan asarlarni ko'rib chiqiladi. Shular jumlasidan biri bu "Gulsara" operasidir. Gulsara operasi 30-yillarda yozilgan bo'lib shu nomli musiqali drama singari o'zbek ayolining ozodlikka chiqishi mavzusi bilan bog'liqdir. Albatta, spektakl mazmunini 40-yillar oxirining tomoshabini gulsara musiqali dramasi o'n ikki yil avval birinchi bor sahnalashtirilganidan boshqacharoq qabul qiladi. Yana shunday operalar yillar osha tobora rivojlanishni boshladi. Opera asosidagi musiqa namunalarini T.Jalilov to'plab, qisman yaratib bergan. T.Sodiqov yozib olgan va R.Glier qayta ishlagan kuylardan tashkil topgan hamda yuqoridagi aytib o'tilganidek yana Gulsara operasi ana shunday tarzda 1949-yili sahna premyerasi bo'lib o'tdi. Shuni aytish joizki yana O'zbekistonda birionchi marotaba hajviy opera yaratildi, u "Maysaraning ishi" operasi edi. Maysaraning ishi operasi Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri jamoasi kompozitor Sulaymon Yudakov, shoir dramaturg Sobir Abdulla va M.Muhammedovlar hamkorligida shu opera yaratildi. "Maysaraning ishi" nomli hajviy operani 1959-yilning 6-yanvarida tomoshabinlarga havol;a etildi. Opera premyerasi juda katta muvaffaqiyatlar bilan o'tgan. Shunday tarzda o'zbek operasi tobora rivojlana boshlangan, yildan yilga yangi operalar o'zbek kompozitorlari tomonidan yaratila boshlandi.[1]

Yuqorida aytib o'tilganidek O'zbekiston san'at arbobi kompozitor Mustafo Bafoyevning, O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborov librettosi asosida ijod etgan "Sevgim samosa" operasi bir qator jihatlari bilan e'tiborni o'ziga tortgan. Bu opera haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak 'Sevgim samosa' operasiga qadar M.Bafoyev sahna sir asrorlarini va qonuniyatlarini dadil izlanishlar asosida bosqichma-bosqich o'zlashtirib borganligining guvohi bo'lganmiz. Avvaliga kompozitor bu operaga bir qadar monand janr musiqali dramalarda bir qator asarlar yaratdi. Bulardan "yettinchi jin", "Uzilgan torlar" shu kabi asarlarni yozib o'z kuchini ko'rdi. Qo'lga kiritgan ijodiy natijalarga tayanib 1987-yili 'umar Xayyom' operasini yaratdi. Shundan so'ng muallif sahnaviy musiqa va unda tarixiy shaxs siymosini yaratish borasidagi izlanishlarini yangi kesimda davom ettirib, 1991-1995-yillar mobaynida "Nodira", "Ulug'bek burji" va 'Moziydan nur" telebaletlarini tomoshabinlar e'tiboriga havola qildindi. Shundan ko'rinib turibdiki bu mashhur kompozitor yildan yilga asarlari mashhur bo'lib, yangi yangi asarlar ustida ishlab, tomoshabinlar e'tiboriga havola etdi.[2]

Avvalo Opera haqida so'z yuritar ekanmiz so'zsiz yana tarixga qaytishimiz lozim. Opera tarixiga yuzlanamiz. Operaning vatani bu Italiya, Italiyada XIV-XVII asrlarda yangi uslubli musiqali sahna janri paydo bo'ldi. Uni avval "Musiqali drama" va kelgusi asrdan boshlab "Opera" ya'ni (italyancha-Opera-so'z, harakat, ijod) deb atay boshladilar. Bu ikki atamani ma'nosi bir bo'lsa ham, lekin ularni bir-biridan asosiy farqi quyidagicha "Musiqali drama"da ishtirok etuvchi personajlar spektakl mazmunidagi dialoglarni oddiy so'z iboralari bilan, monologlar: ariya, arioso, qo'shiq, romans va boshqa ovozli musiqa sadolari orqali ijro etishgan. Shunda ba'zi bir asarlarda ishtirok etuvchi erkaklar va xotin-qizlar ovozlarning farqlanish turlarini oldindan partituraga kiritiladi, ba'zi bir asarlarda umuman bular ko'rsatilmaydi. Shuning uchun xonandalar qanday tabiiy ovozga ega bo'lsalar, shu ovozda ijro etadilar. Operada ishtirok etuvchi personajlar, asosan, dialoglarni-Rechitativ ya'ni "Gesyo yoki Gesyage" ifodali o'qish san'ati orqali ijro etilgan. Rechitativ ikki xil bo'ladi; birinchisi rechitativ zesso – quruq, tez, musiqa jo'rligida so'zlarni burro-burro aytishdir. Ikkinchisi rechitativ assot – ohangli, ya'ni musiqa jo'rligida so'zlarni ohang bilan bilan aytishdir. Yana aytishimiz joizki O'zbek Opera san'atining o'ziga xosligi shundaki, unda o'zbek xalq musiqa an'analari, milliy xalq qo'shiqlari, maqomlar va bayram qo'shiqlari o'ziga xos tarzda opera asarlariga kiorib, yangi musiqiy shakllar yaratildi. Shundan ko'rinib turibdiki Opera asarlaridagi maqomlar, ariyalar, va xalq musiqa shakllari o'zbek opera san'ati uchun eng muhim elementlardan biri bo'ldi hamda opera sahnalarida ajralmas bir qismga aylandi. O'zbek opera san'ati, o'zining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqichlarni boshdan kechirib lekin, bugungi kunda ham o'zining o'ziga xos milliy uslublari va jahon san'atiga qo'shgan hissi bilan yaqqol ajralib turubdi. O'zbek opera san'ati o'zining boy tarixini davom ettirgan holda, zamonaviy ijodkorlar tomonidan yangi yo'nalishlar boyitib yanada o'zbek opera san'atini ko'tarilishi hamda ommaga tez yetib borishi maqsadida ko'plab xarakat ketyapti. Albatta shu o'rinda o'zbek opera

san'atiga o'z hissasini qo'shgan xonanda va bastakjorlar haqida qisqacha to'xtalib o'taman. Birinchi o'rinda Muxtor Ahrafiy o'zbek opera san'atiga katta hissa qo'shgan shaxs. O'zbekistonda birinchi bo'lib opera yozgan inson. Bu opera "Bo'ron" operasidir. Undan so'ng ko'plab asarlar yaratdi. Bu yaratilgan operalar hamon yuksak sahnalar yuzini ko'ryapti. Yana bir qator sanab o'tishimiz mumkin. Mutal Burxonov O'zbek opera va Estrada musiqasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Tolibjon Sodiqov o'zbek professional musiqasining ilk asoschilaridan biri bo'lgan. Ko'plab asarlar yaratishga muvofiq bo'lgan. Bulardan "Layli va Majnun" operasi mualliflaridan biri Sergey Vasilyenko bilan hamkorlikda milliy ohanglarga asoslangan, xalqona ruhdagi asarlarni yozildi. Sulaymon Yudakov "Zaynab va Omon" operasi muallifi. Yevropa musiqasi bilan Sharq ohanglarini uyg'unlashtirgan. O'zbek opera san'atiga yana hissasini qo'shgan mashhurlardan, Karim Zokirov, Halima Nosirova, Mustafu Bafoyev, Saodat Qobulova Muyassar Razzaqova, Ismoil Jalilov, Ramiz Usmonov, Jenisbek Piyazov kabi o'zbek operasini rivojlanishi uchun juda katta qo'shishgan. Hozirda ham O'zbek operalari o'zbek sahnalarida qolaversa, xalqaro hamda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek Musiqasi Tarixi" A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova Toshkent-2018.
2. "Musiqasi Tarixi" A.Ibrohimov, m.Xudoyev Toshkent-2018.
3. "O'zbek Musiqasi Tarixi" Madrimov Bahrom Xudoyev Toshkent-2018.
4. Gaziye, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 260-262).
5. Maxkamjanov, S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGICAL MUSIC OF UZBEK NATION. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 428-430.
6. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. JournalNX, 9(11), 8-10.
7. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIC EDUCATION PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 220-224.
8. Gaziye, J. J. R. (2024). GENERAL EDUCATION SCHOOLS MUSIC EDUCATION MADANIYATI O 'QITUVCHILARINING MUSIC EDUCATION MADANIYATI DARSLARIDA NOANANALY METHODS USE. Oriental Art and Culture, 5(3), 414-419.
9. Qodir o'g'li, M. S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGICAL MUSIC EDUCATION PSYCHOLOGY. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 87-91.
10. Gaziye, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. Inter education & global study, (5 (1)), 456-465.

11. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(28), 68-71.